ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

ONGIY REZONANS TILSHUNOSLIK – INSON TAFAKKURINING YANGI PARADIGMASI SIFATIDA

Xo‘janiyozov Jahongir Xudaybergan o‘g‘li
Ma’mun universiteti, filologiya fakulteti,
O‘zbek va sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ongiy rezonans tilshunoslik inson tafakkurini anglashning yangi paradigmasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada bundan tashqari til, ong va tafakkur o‘rtasidagi energetik-rezonans aloqadorlikning nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, so‘zning energetik tabiati, ma’no tebranishi va inson idroki bilan o‘zaro rezonans jarayoni kognitiv va psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Ushbu paradigma tilshunoslik, psixologiya, fizika va falsafa fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanib, tilning energetik-falsafiy mohiyatini yangicha talqin etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Ongiy rezonans, rezonolingvistika, tilshunoslik, tafakkur, energiya to‘lqini, tebranish, rezonans maydon, rezonans sinxronlik, psixolingvistika, paradigma.

Abstract: This article analyzes the linguistics of consciousness resonance as a new paradigm for understanding human thinking. The article also covers the theoretical foundations of the energetic-resonant connection between language, consciousness and thinking. The energetic nature of the word, the vibration of meaning and the process of mutual resonance with human perception are also analyzed from a cognitive and psycholinguistic perspective. This paradigm was formed at the intersection of linguistics, psychology, physics and philosophy, and allows for a new interpretation of the energetic-philosophical essence of language.

Keywords: Conscious resonance, resonolinguistics, linguistics, thinking, energy wave, vibration, resonant field, resonant synchronicity, psycholinguistics, paradigm.

Аннотация: В статье анализируется лингвистика резонанса сознания как новая парадигма понимания человеческого мышления. Также рассматриваются теоретические основы энергетическо-резонансной связи языка, сознания и мышления. Энергетическая природа слова, вибрация смысла и процесс взаимного резонанса с человеческим восприятием анализируются с когнитивной и психолингвистической точки зрения. Эта парадигма сформировалась на стыке лингвистики, психологии, физики и философии и позволяет по-новому интерпретировать энергетическо-философскую сущность языка.

Ключевые слова: резонанс сознания, резонолингвистика, лингвистика, мышление, энергетическая волна, вибрация, резонансное поле, резонансная синхроничность, психолингвистика, парадигма.

So‘z – oliy energiya. So‘z orqali butun koinot yaraldi. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida so‘zning buyukligini “Kun” (Yaral) so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligi bilan ham dalillaydi[1]. Nutq orqali insonga ta’sir o‘tkazish, ya’ni inson ongida ham ijobiy, ham salbiy fikrlarni uyg‘otish mumkin. XXI asr tilshunosligi inson tafakkurining chuqur qatlamlarini tadqiq etishga kirishdi. Kognitiv, neyro va kompyuter tilshunosligi sohalari tilni nafaqat aloqa vositasi, balki ong faoliyatining markaziy unsuri sifatida ko‘radi. An’anaviy tilshunoslik inson nutqini grammatik,

[1] Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. 1-kitob. “Tamaddun”. – Toshkent, 2018. B. 78.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

semantik va sotsial nuqtayi nazardan chuqur o‘rganganligini bilamiz. Shunga qaramay, milliy tilshunosligimizda hozirgacha tilning energiyaviy va undan hosil bo‘ladigan rezonans tabiatiga yetarli e’tibor qaratilmagan. Ya’ni tilning ong bilan fizik energiya o‘rtasidagi aloqasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar bugungi kungacha yaratilmagan. Yana ham tushunarliroq aytadigan bo‘lsak, til inson ongi tomonidan yaratilgan energiya to‘lqini sifatida mavjud bo‘lishi mumkin degan g‘oya Ongiy rezonans tilshunoslik yo‘nalishining yaratilishini taqozo qiladi va yuqoridagi fikrlar ushbu yo‘nalishing ilmiy asosini tashkil etadi. Inson so‘zlaganda faqat tovush chiqaribgina qolmaydi – u hissiy, neyron va energetik tebranish yaratadi. Bu tebranishlar boshqa inson ongida rezonans uyg‘otadi va tushunish jarayonini yuzaga keltiradi. Bu fikrlar esa til – bu nafaqat aloqa tizimi, balki onglararo energiya almashuvi tizimi sifatida tushunishga imkon yaratadi. Ushbu konsepsiya tilni fizik, neyrobiologik va idrokiy rezonans hodisa sifatida talqin etadi. Demak, til nafaqat axborot uzatadi, balki inson miyasida rezonansli energiya holatini hosil qiladi. Ushbu holat boshqa inson ongida shunga o‘xshash to‘lqin uyg‘otadi va bu tushunish hamda hissiy aloqaning fiziologik mexanizmini tashkil etadi. Shunday ekan, ongiy rezonans tilshunosligini til, ong va energiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi fanlararo yo‘nalish sifatida ko‘rish mumkin. Mazkur yo‘nalishning asosiy g‘oyasi sifatida biz “Ong – bu inson markaziy nerv sistemasining rezonans maydonidir; so‘z esa bu maydonni faollashtiruvchi energiya to‘lqinidir” desak, ayni muddao bo‘ladi. Rezonans terminiga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: “Rezonans (*fr.* Resonance < lot. Resonans – aks-sado beruvchi) 1 *fiz.* Tashqi ta’sirlar ostida jismning majburiy tebranishlari amplitudasining keskin oshib ketishi. *Rezonans hodisasi*[2]”. Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda til – energiya, ong – rezonans maydon, muloqotni esa rezonans sinxronlik hodisasi sifatida tushunish mumkin. Til – bu energiya. Ya’ni har bir so‘z yoki gaplar energiya to‘lqini sifatida miyada aks etadi. Bu to‘lqin semantik ma’no va hissiy rezonans uyg‘otadi. Ong – rezonans maydon. Demak, ong til orqali uzatilgan signallarni faqat mantiqan emas, to‘lqinli rezonans sifatida ham qabul qilish mumkin (ongosti rezonansi). Tovush tembri, ritmi va ohangi miyada maxsus tebranishni uyg‘otuvchi signal tizimi hisoblanadi. Muloqot esa rezonans sinxronligi. Masalan, ikki inson bir-birini tushunganida ularning miya to‘lqinlari sinxronlashadi. Bu holat “tushunish rezonansi” deb ataladi va bu lingvistik, neyrofiziologik va hissiy uyg‘unlikni keltirib chiqaradi. Lekin bu holat hamma insonda bir xillikni keltirib chiqarmaydi. Uch yoki to‘rt kishiga aytilgan bir xil informatsiya insonlarning ongiga turlicha ta’sir o‘tkazadi. Masalan, “Ko‘chada bir daraxt shamolning ta’sirida yerga yiqilibdi” kabi gapni ularga aytadigan bo‘lsak, bu insonlarning biri daraxtning nobud bo‘lganiga nisbatan achinish, ikkinchi bir inson shu daraxt kimningdir ustiga tushmaganligiga shukronalik, yana bir inson, demak, daraxtlarning ostiga mashina qo‘yish kerak emas, degan xulosaga kelishi mumkin. Ammo shunday axborotlar borki, uchala insonning ongida bir xil darajada rezonans uyg‘otishi ham mumkin. Masalan, kimningdir vafot etganligi haqidagi ma’lumot aytilsa, har uchala insonda ham achinish hissi paydo bo‘ladi (bu ham har doim emas). Tilning rezonans hodisasini umumiylik va xususiylik holatiga ko‘ra ma’lum bir axborot – nutq orqali yo‘naltirilganida barcha eshituvchilar uchun bir xil umumiy tarzda tarqaladi. Axborot qabul qiluvchining qabul qilishdan keyingi idrok qilish jarayoni esa yuqoridagi misollar kabi har xil tarzda paydo bo‘ladi va xususiylik xarakteriga ega bo‘ladi. Aytib o‘tilgan fikrlar, albatta, dalillanishi kerak bo‘lgan nazariya. Ammo mazkur nazariyani ilmiy asosda dalillar bilan, tajribalar asosida isbotlash yoki, aksincha, inkor qilish ham mumkin. Agar ushbu yo‘nalish haqidagi fikrlar o‘z

[2] O’zbek tilining izohli lug’ati. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 372-bet

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

tasdig‘ini topa olsa, tilshunoslikda yangi yo‘nalish: ongiy rezonans tilshunoslik – rezonolingvistika yo‘nalishi yuzaga kelishiga zamin hozirlanadi. Bu yo‘nalish tilni yangicha tekshirishga, so‘zlarni yangicha tahlil qilishga, yangi texnologiyalar yordamida so‘zning miyadagi to‘lqinlarini o‘lchash va insonga ta’sir qilish darajasini aniqlashga imkon beradi. Albatta, bu til, nutq va ong o‘rtasidagi munosabatni fizik bog‘liqlik asosida o‘rganadi. Shunday ekan, ongiy rezonans tilshunoslik bir qancha fanlar, jumladan, falsafa, psixologiya, fizika, sotsiologiya, nevrologiya, semiotika va adabiyotshunoslik fanlari bilan bevosita aloqada bo‘lishini va rivojlanishini kuzatish mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek ushbu yo‘nalishimiz psixolingvistika kabi yo‘analishlar bilan bog‘liq holda kechadi. Inson tili bevosita ong bilan psixologik jihatdan bog‘liq ekan, uning in’ikosi sifatida ong orqali paydo bo‘luvchi tafakkurni yuzaga keltirishi tabiiy jarayondir. Mazkur hodisalarni o‘rganishda psixolingvistika yo‘nalishidagi ma’lumotlar yordamga keladi. Psixolingvistika atamasi amerikalik olimlar tomonidan ilmiy hayotga olib kirilgan. Ilk marta bu atama 1946-yilda amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan “Til va psixolingvistika” nomli maqolasida qo‘llanildi. Lekin psixolingvistikaning maqomi keng ilmiy jamoatchilik e’tirof etadigan darajada belgilanmagan edi. Psixolingivstika o‘tgan asrning 50-yillarida shakllangan bo‘lsa ham, uning ildizi uzoq davrlarga – tilshunoslikda anchadan buyon davom etib kelayotgan psixologik yo‘nalishga borib taqaladi. Demak, psixolingvistika XIX asr tilshunosligida hukm surgan psixologik yo‘nalishning mantiqiy davomidir. Shuning uchun ham, avvalo, psixolingvistikaning ildizi bo‘lgan tilshunoslik nazariyasidagi psixologik yo‘nalish haqida fikr yuritishga to‘g‘ri keladi[3]. Bundan tashqari yangi ta’limotni nazariy asoslashda kognitiv tilshunoslikning ta’limotlariga tayanishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslikda biz til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishning yangi bosqichini ko‘ramiz, bu muammo, asosan, rus nazariy tilshunosligiga xosdir. Bunday tadqiqotlarni neyrofiziologlar, shifokorlar, psixologlar boshlashgan (P.Brok, K.Vernik, I.M.Sechenov, V.M.Berkhterev, I.P.Pavlov va boshq.). Neyrolingvistika neyrofiziologiya asosida vujudga kelgan (L.S.Vigoskiy, A.R.Luriya). Til faoliyati inson miyasida sodir bo‘lishi, uning har xil turlari (tilni o‘zlashtirish, tinglash, gapirish, o‘qish, yozish va boshqalar) miyaning turli qismlari bilan bog‘liqligi qayd qilinadi[4].

Til va tafakkur o‘rtasidagi aloqada tilning ongiy rezonans holati ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ya’ni til, ong va tafakkur bir-biri bilan bog‘liq hodisa sifatida bir-birini taqozo qiladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, inson ongidagi ma’lum bir til birligi o‘z energiyasi (rezonans tebranishi) natijasida tafakkurga ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shunga ko‘ra inson ongi energiyani qabul qiluvchi rezonans maydon, til – bu energiya uzatuvchisi, tebranuvchi markaz tafakkur esa energiya maydonida rezonans tebranish natijasida hosil bo‘lgan natijaviy aks-sado desak bo‘ladi. Tafakkur o‘zaro rezonansga kirgan til birliklari orqali uyg‘onadi va kuchayib boradi. U inson ongining eng oliy bosqichidir. Sh.Safarovning yozishicha, “Tafakkur qaysi holatda va qanday ko‘rinishda harakatga kelmasin, yagona bir vazifani bajaradi – u voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to‘plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir. Bu usul vositasida hosil bo‘ladigan g‘oya yoki fikr voqelikning ongda aks etish shaklidir. Tafakkurning harakatlanishi va fikr shakllanishi voqelikning bevosita ongda aks etishini ta’minlovchi jarayon – bilish faoliyati bilan bog‘liq. Tilning bilish faoliyatidagi o‘rni alohida, u voqelikni idrok etish va bilish vositasi – qurolidir[5]”. So‘zlarimiz ongimizda o‘z tebranish chastotasiga ega va u ma’lum darajada insonga ta’sir o‘tkazadi. Masalan,

[3] Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. –Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989. –С.6.
[4] З.Д.Попова, И.А.Стернин,. *Когнитивная лингвистика. Монография.*. АСТ: «Восток-Запад», 2007.
[5] Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: “Sangzor” nashriyoti. 2006, 13 – bet.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“ona” so‘zi deyarli barchaning ongida iliqlik uyg‘otadi. Yuqorida aytganimizdek, ongiy rezonans tilshunoslikda so‘zlarning tebranish va ta’sir o‘tkazish darajalari o‘rganiladi va bu tilshunoslikda ya’ngi yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida Ongiy rezonans tilshunoslik – Rezonolingvistika tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki inson ongidagi energetik rezonanslar tizimi sifatida talqin etuvchi yangi ilmiy yo‘nalishdir. Bu yo‘nalish inson ongida mavjud so‘zlarning rezonans tebranishlarini o‘rganadi. Bu tebranish esa fikr, hissiyot hamda inson xulqiga bevosita o‘z tasirini o‘tkazadi. Til va ong o‘rtasidagi rezonans holatini o‘rganish esa til va ongni yanada chuqurroq o‘rganishga olib keladi hamda yangi ta’limotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 372-b.

2. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989. – С. 6.

3. Попова З.Д., Стернин И.А.,. *Когнитивная лингвистика. Монография.*. АСТ: «Восток-Запад», 2007.

4. Safarov.Sh Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: “Sangzor” nashriyoti. 2006.–13- b.

5. Sirojiddinov. Sh., Yusupova. D., Davlatov. O., Navoiyshunoslik. 1-kitob. “Tamaddun” T.: 2018 – 78-b.

6. Ergasheva.Sh Kognitiv tilshunoslıknıng shakllanıshı va ularnı o‘rganısh masalaları. Yosh olımlar ılmıy-amalıy konferensıyası. Maqola. 46-47-betlar

7. S.Jabborova. Kognıtıv tılshunoslık masalaları. Ilmıy tadqıqotlar, ınnovatsıyalar, nazarıy va amalıy strategıyalar tadqıqı konferensiyasi. Maqola. 2022-yil